



JIGAR SIRROZI BEMORLARIDA BUYRAK FUNKSIYASI BUZILISHLARI

Bahriyev Aslbek G'iyosiddin o'g'li

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Dolzarbligi. Jigar sirrozi bilan og'rigan bemorlarda portal gipertenziya va tizimli gemodinamik o'zgarishlar buyrak perfuziyasining pasayishiga olib keladi[1]. Natijada glomerulyar filtratsiya tezligi kamayishi, kreatinin va mochevina ko'rsatkichlarining ortishi kuzatiladi. Klinik kuzatuvlar sirroz og'irligi ortishi bilan buyrak funksiyasi buzilishlari chastotasi ham ortib borishini ko'rsatadi[3]. Ayniqsa jigar sirrozining dekompensatsiya bosqichi gepatorenal sindrom rivojlanish xavfi sezilarli darajada yuqori bo'ladi[2]. Shu sababli jigar sirrozi bilan og'rigan bemorlarda buyrak funksiyasi ko'rsatkichlari va kasallik og'irligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muhim ilmiy va klinik ahamiyatga ega.

Maqsad. Jigar sirrozi bilan og'rigan bemorlarda buyrak funksiyasi buzilishlari orasidagi bog'liqlikni o'rganish.

Material va metodlar. 2024–2025-yillarda 95 nafar jigar sirrozi bilan og'rigan bemor (56 erkak, 39 ayol; o'rtacha yosh $52,7 \pm 9,1$ yil) tekshirildi. Bemorlar Child–Pugh tasnifi asosida uch guruhga ajratildi: A daraja ($n=28$), B daraja ($n=34$) va C daraja ($n=33$). Tekshiruvlar qonning biokimyoviy tahlili (kreatinin, mochevina), glomerulyar filtratsiya tezligini (GFR) hisoblash, siydik umumiy tahlili va buyraklarning ultratovush tekshiruvi yordamida amalga oshirildi. Olingan natijalar statistik usullar orqali tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra bemorlarning 46,3% ($n=44$) da buyrak funksiyasi buzilishlari aniqlandi. Buyrak funksiyasi ko'rsatkichlari jigar sirrozi og'irligi ortishi bilan sezilarli o'zgarishi kuzatildi. Child–Pugh A guruhida kreatinin darajasi o'rtacha $92,3 \pm 11,4$ mkmol/l, B guruhida $118,6 \pm 17,2$ mkmol/l, C guruhida esa $156,4 \pm 22,3$ mkmol/l ni tashkil etdi. Glomerulyar filtratsiya tezligi mos ravishda A guruhida $92,5 \pm 13,1$ ml/min, B guruhida $73,4 \pm 12,6$ ml/min, C guruhida $58,7 \pm 11,5$ ml/min ni tashkil qildi. Kasallikning og'ir bosqichlarida buyrak funksiyasi buzilishlari ko'proq uchrashi kuzatildi. Tadqiqot davomida bemorlarning 12,6% da gepatorenal sindromga xos klinik belgilar aniqlandi.

Xulosa. Jigar sirrozi bilan og'rigan bemorlarda buyrak funksiyasi buzilishlari yuqori uchrash ko'rsatkichiga ega bo'lib, kasallik og'irligi bilan bevosita bog'liqdir. Buyrak ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilish va gepatorenal sindromni erta aniqlash bemorlarning prognozini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

MANBALAR:

1. Francoz C., Nadim M., Baron A. The evaluation of renal function and disease in patients with cirrhosis. *Journal of Hepatology*, 2010.
2. Carvão J., Pereira V. Challenges in measuring renal function in liver cirrhosis. *Acta Gastro-Enterologica Belgica*, 2020.
3. Ranasinghe I., et al. Hepatorenal Syndrome. StatPearls Publishing, 2023.